



O'zDJTU huzuridagi RIAIM

Lotin tili yo'nalishi
tinglovchilari uchun

O'quv-uslubiy majmua

2019

Filologiya va tillarni o'qitish:
Ingliz tili

5.2. Lotin tilida tadqiqotlar olib borishning
tizimli yondashuvlari

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalari faoliyatini Muvofiglashtiruvchi kengashining 2019 yil 18 oktyabrdagi 5 – sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan o'quv dasturi va o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **M.N.Israilova. T.D.S.I. Lotin tili va tibbiy terminologi fani dotsenti. P(h)D**

Taqrizchi: **L.E.Xasanova T.D.S.I. T.F.D., professor**

O'quv-uslubiy majmua O'zDJTU huzuridagi RIAIM Kengashining 2019 yil **27.09** dagi **9** sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	12
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	24
IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI.....	31
V. KEYSLAR BANKI.....	43
VI. GLOSSARIY	45
VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	50

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-sonli, 2017 yil 7 fevraldagagi "Ozbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2019 yil 27 avgustdagagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmonlari, shuningdek 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur mazmuni oliy ta'lifning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg'or ta'lif texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta'lif jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kom'etentligi va kreativligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullarini o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lif sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiyligi malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, bu orqali oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining sohaga oid zamonaviy ta'lif va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv

jarayoniga keng tatbiq etish, chet tillarini intensiv o‘zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahoratini, ilmiy faoliyatini muntazam yuksaltirish, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishni tizimli tahlil qilish, shuningdek, pedagogik vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq kompetensiyalarga ega bo‘lishlari ta’milanadi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning maxsus fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar o‘zgartirilishi mumkin.

Bugungi kunda tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida lotin tilini chuqurlashtirilgan holda o‘qitishning o‘quv-uslubiy ta’minoti alohida ahamiyatga molikdir. SHu jihatdan kompetentsiyaviy yondashuv asosida tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida lotin tilini o‘qitishning metodik ta’minotini modernizatsiyalash, talabalarni intellektual-madaniy rivojlantirishning didaktik asoslarini konsentrizm tamoyili bo‘yicha fundamental va amaliy bilimlar asosida takomillashtirish, intellektual-madaniy tavsifdagi o‘quv materiallarini tizimlashtirish taksonomiyasini aniqlashtirish zaruratini izohlaydi.

Jahon miqyosida lotin tili, ayniqsa, Evropa mamlakatlarida maktab dasturlaridan boshlab o‘qitiladi. Xristian dinining barcha adabiyotlari lotin tilida yozilgan va chop etilgan. Hozirda dunyoning eng kichik davlati – Vatikanda lotin tili davlat tili hisoblanadi. Ma’lumki, Evropa davlatlarining tibbiyot sohasi boshqa mamlakatlarning tibbiy olamidan ancha oldinda ekanligi sir emas. Ularning lotin tilini chuqur bilishi va terminlarning mazkur tildagi ma’nosini to‘g‘ri talqin etishlari soha vakillariga katta yordam beradi. CHunki tibbiyot sohasidagi barcha ilmiy adabiyotlar lotin tilida talqin etilgan va shu kungacha bu til o‘z mavqeini yo‘qotmagan. Evropa tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida Amerikaning Ogayo shtatida joylashgan Toledo universiteti professorlari Barbara Gilius va Regina Maysters tomonidan yozilgan “Tibbiy terminologiya” nomli o‘quv adabiyotidan foydalanishadi. Lotin tilini chuqur va jadal o‘rganishning didaktik asoslarini takomillashtirish, talabalarda lingvokulturologik

kompetensiyani rivojlantirishning konseptual modelini ishlab chiqish, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasida xalqaro aloqalarning faol yo‘lga qo‘yilishi orqali lotin tilini o‘rganishning me’yoriy-uslubiy ta’minotini modernizatsiyalash, tibbiyat oliy ta’lim muassasalarida lotin tilini o‘qitishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirish o‘rganilayotgan mavzuning zaruratini belgilaydi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturining 219-bandida “Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyat markazlari, ilmiy-tekshirish institutlari va oliy o‘quv yurtlari klinikalari etakchi mutaxassislarini jalg qilgan holda keng tarqalgan kasallikkarning oldini olish va erta aniqlash”¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu, o‘z navbatida, sog‘liqni saqlash va farmatsevtika sohasida lotin tilini mutaxassislik fanlari bilan integrallashgan holda chuqur o‘rganish, didaktik asoslarini e’tiborga olib takomillashtirish, talabalarda lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirishni taqozo etadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Tinglovchilarning amaliy lingvistika va metodika fanidan tadquqotlar olib borish, ingliz tili tilshunisligi va o‘qitish metodikasi fanidan tadqiqot metodlarini o‘rganish. Amaliy lingvistika, metodika fanlaridan etakchi tadqiqotlarni topish va tahlil qilish. Juhon olimlarining tilshunoslik fani sohasida yaratgan muhim nazariy tadqiqotlarini tahlil qilishga o‘rgatish, ularni dars jarayoniga samarali tatbiq etishga o‘rgatish.

Modul mavzu va topshiriqlari

Fanning umumiy tadqiqot metodlari. Amaliy lingvistika. Amaliy lingvistika ning boshqa fanlar bilan aloqasi. Tilshunoslikda ilmiy faolyoyat yuritish. Amaliy lingvistika fani doirasida dars kuzatish. Ilmiy maqolani o‘qish, taxlil qilish va yozish.

Ilmiy eks'eroment va uning turlari. Abstract yozish. Ilmiy maqola saralash va namunaviy ilmiy maqola saralash. Ilmiy metodlar ba ularning turlari.

Maxsus fanlar bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- lotin tilini faol til sifatida, tilning grammatik tuzilishi, nutqning eng kichik kommunikativ birliklarining stilistik maqsadlarga oid dolzarb mavzular;
- fonostilistikaning fonemalar va ularning turlari, tilning elementlari bilan bog'liq muammolar;
- grammatikaning amaliy maqsadlarda qo'llanishi bilan bevosita va bilvosita bog'liq jihatlari va ularning turlari;
- tilning lug'at tarkibi, leksik – stilistik qatlamlar, frazeologiyaning stilistik jihatlari bilan bog'liq dolzarb muammolari, so'zda stilistik bo'yoqning paradigmatic va sintagmatik shaklda aks etishi haqida **bilimlarga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- stilistikaga oid tadqiqotlarni, sohaga oid tadqiqotlarda innovatsion yondoshuvni shakllantirish;
- stilistikani o'rganish yoki o'qitish borasida ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etiladigan yoki eshittiriladigan yangiliklarni bilish;
- stilistik ma'no tushunchasi, uning lingvistik aspektlarning boshqa ma'nolari, xususan leksik ma'no bilan aloqadorligini aniqlash;
- stilistika bo'yicha turli nazariy qarashlar va etakchi konsepsiylar, lingvistik tahlil metodologiyasi va metodlarini qo'llash;
- turli lingvistik konsepsiyalarni tanqidiy baholash va ularni tilning aniq materiali asosida tahlil qilish;
- stilistik bo'yoqni shakllantirish bilan bog'liq til vositalari va stilistik figuralarni amaliyatda qo'llash;
- stilistikaning ritorik imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni umumlashtirish qobiliyatiga ega bo‘lish;
- stilistikaning taraqqiyot qonuniyatları, sohaning nazariy masalalari, muammolari va uning o‘ziga xos xususiyatlarini bugungi kun til taraqqiyoti nuqtai nazaridan talqin etish;
- tilshunoslikda stilistika fanini o‘qitishning zamonaviy interaktiv metodlaridan foydalanish;
- stilistika bo‘yicha innovatsion o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash, amalga oshirish, baholash, takomillashtirish;
- stilistikaning zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasi, turli tadqiqot metodlari va metodologiyalarini qiyosiy tavsiflash;
- hozirgi zamon tilshunoslidagi turli nazariy qarashlar, hozirgi zamon tilshunosligening etakchi konsepsiyalari, ilg‘or nazariyotchi tilshunoslarning asarlaridan foydalanish;
- madaniyatlararo muloqotda stilistikaningning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ulardan muloqot jarayonida foydalanish;
- filologyaning dolzarb mavzulari va ularni o‘qitishga bag‘ishlangan mavzularda stilistika bilan bevosita bog‘liq malakaviy ish yozish va uni nemis tilida himoya qilish **ko‘nikma va malakalarini** egallashi lozim.

Tinglovchi:

- lotin tilini o‘qitishning xorijiy metodikasi tajribasida stilistikani tahliliy o‘rganish, umumlashtirish, ularning yutuqlaridan ta’lim jarayonida foydalanish;
- kommunikativ kompetensiyani aniqlash xususiyatlariga mos nazorat metodini tanlash;
- testlarning kommunikativ kompetensiya darajasini aniqlash, test tuzish, uning sifat va samaradorligini aniqlash mezonlari bilish;
- test natijalarini aniqlash va baholash mezonlarini ishlab chiqish va ta’limga joriy etish;

- stilistikada til aspektlari (fonetika, grammatika, leksika, frazeologiya va matn) ning tildagi rolini aniqlash oid **kompetensiyalarni** egallashi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tqazish bo‘yicha tavsiyalar

“Tilshonoslikda tadqiqotlar olib borishning tizimli yondashuvlari” kursi amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- darslarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlар, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Tilshonoslikda tadqiqotlar olib borishning tizimli yondashuvlari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi metodika va zamonaviy lingvistika o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning til ko‘nikmalarini talab darajasida qo‘llay olish malakasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliv ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ilmiy maqola va tezislarni o‘qib tahlil qilish malakasi va kasbiy salohiyatlarini rivojlantiradilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat	
		≡	Auditoriya o‘quv

			yuklamasi		
			Jami	jumladan	
				Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	Ilmiy tadqiqotlarda tizimli tahlilning o‘rni, mohiyati va ahamiyati	2	2	2	
2.	Filologik tadqiqotlarda tizimli tahlil metodikasi	2	2		2
3.	Ma’lumotlarni tahlil qilish va ilmiy-tadqiq usullari	2	2		2
	Jami	6	6	2	4

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Ilmiy tadqiqotlarda tizimli tahlilning o‘rni, mohiyati va ahamiyati

Tizimli tahlilda filologik terminlar identifikatsiyasi. Tizimli tahlilning shakllanish va rivojlanish bosqichlari. Analitik tadqiqotlar asosida tizimli tahlilni tashkil etish. Badiiy matnga tizimli yondashuv. Tahlil jarayonlarining ketma-ketligi va yaxlitligi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Filologik tadqiqotlarda tizimli tahlil metodikasi

Tizimli tahlilning terminologik asoslari va yo‘nalishlari

Filologik tadqiqotlarda tizimlilik. Struktura va tizim. Tahlil jarayonining tizimli xarakteri. Filologiya ilmida tizimli tahlil modeli: lingvopoetika→struktural poetika→semiotika. Ilmiy va nazariy masalalarining tizimli tahlil amaliyotidagi echimi.

2-mavzu. Ma'lumotlarni tahlil qilish va ilmiy-tadqiq usullari

Til – ijtimoiy hodisa. Lingvistik ta'limotda matnning mantiqiy aloqadorligi va shakliytugallanganligi asosiy xususiyat sanaladi. Shuning uchun ham unga “ma’no aloqadorligi asosida birlashgan verbal (so’z) belgi birliklarining tizimi, uning asosiyxususiyati bog’liqlik va yaxlitlikdir” deb ta’rif beradilar. Matn tilshunosligi deb nomlanuvchi til ilmi matnni shakllantirilgan nutq sifatida qabul qilib, uning ma’noviy va shakliy qurilishiga ahamiyat qaratadi.

O‘qitish shakllari

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- noan’anaviy o‘qitish (interaktiv, konferensiya, debat);
- davra suhbatlari (muhokama etilayotgan muammo va uning yechimi bo‘yicha mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli raqamlar taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI


“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



Namuna: Filologik ta'limga tizimli tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Tizimli tahlilning kuchli tomonlari	Maksimal aniqlik bilan turli yondashuvlar asosida yuqori samaradorlikka erishish
W	Tizimli tahlilning kuchsiz tomonlari	Bo'sh, tarkiblanmagan matnlarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi
O	Matnlar bo'yicha tizimli tahlil (ichki) imkoniyatlari	Matn shakllaridan kelib chiqib har bir komponentni mikrotahlildan o'tkazish
T	To'siqlar (tashqi)	Tizimli tahlil bo'yicha naza-riy bilimlarning etishmasligi



“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi

ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик грухларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир грухга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма материалларни



ҳар бир грух ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қиласди;



навбатдаги босқичда барча грухлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлр билан тўлдирилади ва мавзуу

Namuna:

Filologik ta’limda tizimli tahlil

Lingvopoetik tahlil		Struktural (tarkibiy) tahlil		Semiotik tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

Xulosa:

«Tizimlilik aloqadorligi»ni aniqlash.
O‘zingizni tekshirib ko‘ring

Harakatlar mazmuni	YAkka bahο	YAkka xato	To‘g’ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Tizimning mohiyati					
Tizimli tahlil					
Tizimli yondashuv					
Gumanitar fanlar tizimi					
Tilshunoslik tizimi					
Adabiyotshunoslik tizimi					
Folklorshunoslik tizimi					

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo’llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audiovizual harakat; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash

2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Filologik ta'limdi tizimli ko'rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobjiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Кейсни бажариш босқчилари ва топшириқлар:

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг (индидаул ва кичик гурухда).
- Мобил иловани ишга тушириш учун бажариладагина ишлар кетма-кетлигини белгиланг (жуфтликлардаги иш).

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna.

Fikr: “Tilshunoslikda tizimli tahlil til – sistemadir qoidasiga amal qiladi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. SHuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



1. Тизим тушунчасига таъриф инг.

A. Тизим бир бутунликни ташкил этувчи элементларнинг ўзаро алоқадорликдаги ийғиндисидир.

Б. Тизим бир бутунликни ташкил этувчи бадий компонентларнинг арифметик ийғиндисидир.

В. Тизим бир бири билан боғланган тушунчалар ҳамоҳанглигидир.

Г. Тизим бир бутунликни ташкил этувчи бири бирига ўхшамаган ҳолисалар тўпламидири.



3. Тизимли таҳлилга яқин келган, ҳатто синоним тарзида ишлатиладиган тушунчани аниқланг.

▲ Тизим методологияси



2. Тизимли таҳлил деганда нимани тушунасиз?

A. Ўзаро алоқадорликдаги тушунчалар асосида бирор обьектни муайян мақсад асосида таҳлил қилиши.

Б. Бирор асар ёки предметни кетма-кет таҳлил қилиш.

В. Бир йўнапиттилаги ҳолисатларни



4. Социал тизим деганда нимани тушунасиз?

A. Мураккаб тарзда қурилган, яхлит ҳолда тартибланган, ўзаро алоқадорлик ва тараққиёт қонунларига асосланган ва ўз табиатига кўра ижтимоийлик касб этган тизим.

Б. Мураккаб тарзда қурилган, ўзининг ички қонуниятлари асосида тараққий

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘srimch a ma’lumot
Tizim	Tizim bir butunlikni tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro aloqadorlikdagi yig‘indisidir.	
Tizimli tahlil	O‘zaro aloqadorlikdagi tushunchalar asosida biror ob’ektni muayyan maqsad asosida tahlil qilish.	
Sotsial tizim	Murakkab tarzda qurilgan, yaxlit holda tartiblangan, o‘zaro aloqadorlik va taraqqiyot qonunlariga asoslangan va o‘z tabiatiga ko‘ra ijtimoiylik kasb etgan tizim.	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘srimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.


Venn diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Tizimli tahlil joriy qilinadiga filologiya sohalari



“Insert usuli”

Insert – samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning inter faol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib “V”; “Q”; “?” belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

- (V) – men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (Q) Q yangi ma’lumot
- (Q) – men bilgan narsaga zid
- (?) – meni o‘ylantiradi. Bu borada menga qo‘srimcha ma’lumot zarur.


Insert jadvali

Tushunchalar	V	Q	-	?
Tarjima nazariyasiga oid asarlar	Mustaqillik davri tarjima asarlari			
O’zbek adabiyotidagi tarjima asarlari	«Qirq qiz», «Masposhsho»			
Qoraqalpoq adabiyotidagi tarjima asalari	“Xorazm”, “Navro’z”, “Ulug’bek xazinasi”			
Tarjimalarning o’zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalari rivojidagi o’rni	“Hazrati inson”, “Ko’k jiyak”			

“Veen diagrammasi” Ushbu grafik organayzer tinglovchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi. “Venn diagrammasi” grafik organayzeri adabiy ta’limda adabiy asarlar, tarjima asalarini tahlil qilish mumkin. Masalan; uchta doira chizib, o’zbek adabiyotidagi tarjima asari, qoraqalpoq adabiyotidagi tarjima asarilarining o‘xhash va farqli tomonlarini tahlil qilish mumkin.

Venn diagrammasi talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

“Veen diagrammasi” asosida tarjima asarlarining tahlili



Klaster usulida tarjima asarlari.

“Klaster” – (g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) metodi – Fikrlarning tarmoqlanishi - puxta o‘ylangan pedagogik strategiya bo‘lib, undan talabalar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmuni tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi, talabalarning biron-bir mavzuni chuqr o‘rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog‘langan ketma-ketlikda o‘rgatadi. Darsda imkon boricha fikrlarning va o‘zaro bog‘liqlikning ketma-ketligini ko‘paytirishga harakat qilinishi lozim.

“Blits-o‘yin” metodiMetodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ular dan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. SHundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o’tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlар o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. SHundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridaн pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiylig yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridaн pastga qarab qo‘shiladi va umumiylig yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiylig yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. Ilmiy tadqiqotlarda tizimli tahlilning o‘rni, mohiyati va ahamiyati

Reja:

1. Ilmiy tadqiqotlarda tizimli tahlil asoslari. Tushuncha va tamoyillar tizimi.
2. Tizimli tahlilning tizimli yondashuvdan farqli jihatlari.
3. Aniqlanmaganlik sharoitida muboqil qaror qabul qilish tizimli uslub asosi sifatida.
4. Tadqiqot ob’ektini yaxlit tushunish va tizimli tahlilni tashkil etish.

Tayanch iboralar: tizim, tizimli tahlil, tizimli yondashuv, sotsial tizim, ilmiy tadqiqot, muqobil qaror, tadqiqot ob’ekti, yaxlit tushunish.

1. Ilmiy tadqiqotlarda tizimli tahlil asoslari. Tushuncha va tamoyillar tizimi.

Tizim (sistema – yunoncha: butunlik, qismlarning ulanib, bir butun holida bo‘lishi) biror butunlik (yaxlitlik)ni hosil qiluvchi unsur (komponent)larning o‘zaro aloqadorlikdagi yig‘indisidir1.

Fanlarning ko‘p asrlik tarixi davomida sinovlardan o‘tib, tushunchalarning tarixiy taraqqiyotida nihoyat XX asr o‘rtalaridan TIZIM falsafiy metodologik va maxsus ilmiy tushuncha bo‘lib shakllangan. *Tizim, tizimlilik* tushunchalari doimiy suratda qism va butun mohiyatini birlashtirib turgan, xuddi islomiy falsafadagi *kull va juzv singari o‘zaro aloqadorlik va mavjudlikni anglatadi*. *Kull – butunlik, yaxlitlik hodisasi bo‘lib, juzv uning qismi, butunning bo‘lagi, biroq undan ayri holida mavjud bo‘lishi yoki yashashi mumkin emas*. *Xuddi shu kabi dunyodagi turli yo‘nalishdagi narsahodisalar o‘zaro ichki tizimlilik qonuniyatiga amal qiladi*. *Xuddi dialektik birlikdagi musbat (+) va manfiy (-) jihatlar bir butunlikni tashkil etgani kabi*. *Butunning mohiyatini o‘rganish uchun, tabiiyki, uning qismlarini tasavvur qilishimiz va ular o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlay olishimiz kerak*. *Osmon jismlarining tizimliligi, tabiat hodisalarini tizimli holda tushunish, bir fan doirasidagi qarashlarni yaxlit tizim hosil qiluvchi tushunchalar sifatida belgilash mana shu tizimlilikning yorqin namunasidir*.__

Bu o‘rinda butunni hosil qiluvchi a’zolar, ikki xil: *element* (unsur) va *komponent* (uzv) istilohlari bilan anglatiladi. Element biror narsa va hodisaning tarkibidagi

material bo'lsa, komponent o'sha materialning boshqa hodisa va xossalari bilan aloqaga kirishuvi, ya'ni aloqadorligini belgilaydi.

Ochiq tizimi tushunchasi L. fon Bertalanfi tomonidan joriy etilgan. Ochiq tizimlarning asosiy xususiyatlari – muhit bilan massa, energiya, axborot almashish qobiliyati. Har qanday pedagogik tizim jamiyatda mavjud bo'lib, atrof-muhit holatiga (iqtisodiy, siyosiy, ekologik, texnologik va boshqa jihatlar) doimiy bog'liq bo'lganligi sababli ochiq tizim hisoblanadi2.

Tizimli tahlil (TT) ikki ma'noda qo'llaniladi: tor va keng ma'nolarda; 1) tor ma'noda murakkab siyosiy, harbiy, sotsial, iqtisodiy, ilmiy va texnik xarakterdagi muammolarni echish va asoslashda qo'llaniladigan metodologik vositalar yig'indisidir; 2) keng ma'noda "TT" ko'pincha, "tizimli yondashuv"ning sinonimi sifatida qo'llaniladi3 (Tizimli yondashuvga kirishilganda bu munosabatga yana qaytiladi).

Ilmiy adabiyotlarda tizimli tahlilni turlicha talqin qilishadi:

1. Tug'ilgan yoki echimini kutayotgan muammoni hal qilish metodlaridan biri; Bozor sharoitida tannarx → samaradorlik. Bu o'rinda tizimlar tahlili sifatida qaraladi.

Petticrew, Mark. Systematic reviews in the social sciences : a practical guide/Mark Petticrew and Helen Roberts.

H62.P457 2005 ISBN-10: 1-4051-2111-4 (pbk. : alk. paper)

3 Spitsnadel V.N. Osnovы sistemnogo analiza. SPb., Izd. dom «Biznesspressa», 2000. S. 72.

2. Tadqiq etishning aniq usuli (metodi). Bu tarixiy metod bo'lib, bu o'rinda antik davrdan beri qo'llanilib kelingan analiz va sintez munosabati nazarda tutiladi. Demak, tahlil (analiz) sintezning ziddi: A↔S.

3. Tizimli metodologiya asosiga qurilgan tahlil. Bir ob'ekt bir necha metod orqali tahlil qilinishi mumkin: Tilshunoslikda bir matn morfologik (M), sintaktik (S), fonetik yoki fonologik (F) dihatdan tahlil qilinadi:

$$M + S + F = T.$$

Badiiy matn tahliliga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashganda: mazmun + shakl + ritmika + uslub = T.

4. Tadqiqotning nazariy-amaliy yo'nalishi: nazariya (N)dan amaliyot (A) sari rivojlanadigan ilmiy-amaliy jarayon: N → A.

Axborotlarning tizimli sharhi qanday amalga oshiriladi, va bu sharhlar kimlarga, nima uchun kerak degan bu kabi muammolar [Petticrew,

Mark. Systematic reviews in the social sciences : a practical guide] da keng yoritilgan.Ta'kidlanganidek, tizimlari uchun muhim tushuncha – maqsad hisoblanadi. Maqsadga yo‘naltirilgan va maqsadga intiluvchan tizimlar farqlanadi. Ular maqsadning tashqaridan qo‘yilganligi yoki maqsad ichki (ochiq, o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizimlarga xos) shakllantirilganligi bilan farqlanadi4.

TT ning asosiy vazifalari:

- tizimni hosil qiluvchi tizimosti uzvlarining mavjudligi va ularni yaxlit tizimli tushunish lozimligi;
- tizim xususiyatlarini aniqlash va unga ko‘ra ish ko‘rish; – mavjud axborotlar asosida hosil qilinish qonuniyatini belgilash va uning uzvlarining aloqadorligiga ishonish;

TT jarayonida dastlab tadqiqodchi tomonidan aniqlanishi zarur bo‘lgan jihatlardan birinchisi *dekompozitsiya*: kuzatish va o‘lchash jarayoni. Undan keyin esa *tizimni tasniflashga* kirishiladi:

Belgilar:	Sinflar (tasniflar):
Uzvlar tabiatи	tabiiy (aniq) va mavhum (abstrakt)
Harakat xarakteri	boshqariladi va boshqarilmaydi
Xossalarning o‘lchovi	statik va dinamik
Murakkablik darajasi	oddiy, murakkab, ulkan
Kelib chiqishi	tabiiy va sun’iy (ishlab chiqarilgan)
Tasodiflik mavjudligi	determinik (o‘sishdagi) va stoxastik (to‘xtab qolish)

Tashqi muhitga aloqadorligi	ochiq va yopiq (bevosita va bilvosita)
-----------------------------	--

TT ning ishchanlik xarakteri *robastlik* – barcha uzvlar to‘xtab qolganda qisman ishchan holatining saqlanishi yoki gumanitar sohalarda: struktur, funksional, informatsion, makoniy va zamoniy jihatlan aloqadorligi kabilar.

Emerjentlik – yaxlitlik elementlarning komponentlashuvi, ya’ni unsurlarning o‘zaro aloqadorlikka kirishuvi natijasida butunlik (yoki jonlilik) hosil qilinishidir.

Struktura (lot. *structūra* — «qurilish» tizimning tarkibiy qismlari orasidagi ma’lum bog‘lanishlarni, ularning joylashishini, tizimning qurilishini, tuzilmasini aks ettiradi.

2. Tizimli tahlilning tizimli yondashuvdan farqli jihatlari. Tizimli tahlil (TT)ning tizimli yondashuv (TYO)dan farqli jihatlarni nimalarda ko‘rinadi:

Ilmiy istiloh sifatida ularni farqlash zarur:

TT – yuqorida aytilgan jihatlari bilan e’tiborli, ya’ni u tahliliy jarayon;

TYO – aniq ob’ektga tizimli munosabatni ifodalaydi; u metod yoki metodologiya emas, balki unga yondoshish tamoyillarini aks ettiradi. XX asr o‘rtalaridan TYO ilmiy tadqiqotlarga kirib kela boshladi. Ob’ektga umummilmiy va spetsifik munosabati bilan TT dan farq qiladi. TYO o‘zining qator xususiyatlari bilan strukturalizm va struktural— funksional tahlilga yaqinlashadi. CHunki bu o‘rinda umuman, tahlil jarayoni emas, balki ob’ektga aniq yondashuv turi va natijaga olib boruvchi yo‘llari ko‘zda tutilgan.

Bu ikki tushuncha ko‘pincha biri ikkinchisi o‘rnida qo‘llanilishi ham mumkin, biroq ularning biri jarayon, ikkinchisi munosabat ekanini unutmaslik lozim.

TT turli fan sohalarida quyidagi tizimli metodlarga ega:

- mavhumiylik va aniqlik;

- analiz va sintez;
- induksiya va deduksiya;
- formal va aniq (tabiiy);
- kompozitsiya va dekompozitsiya
- chiziqlilik no chiziqlilik (raqamli yoki mexanik)
- tarkibiy va tarkibsiz (struktiv va destruktiv)
- modellashtirish va tajribaviy (eksperimental)
- dasturiy boshqaruv (alohida talab doirasida) va doimiy
- aniqlash va identifikatsiya
- klaster va tasniflash
- tajribaviy baholash va testlash kabi o‘nlab o‘nlab metodlarni birlashtiradi.

3. Aniqlanmaganlik sharoitida (noma'lum muhitda) muboqil qaror qabul qilish tizimli (metod) uslub asosi sifatida.

Har qanday muammoni hal qilish uchun ilmiy tizimga kirishishning boshlang‘ich nuqtasi aniqlanmaganlik holatidir. Bu jarayonda yuqoridagi kabi TT ga kirishi usullari qo‘llanilishi barobarida undan tashqpri yoki parallel ravishda muqobil qaror qabul qilishga qaratilgan usullardan ham foydalaniladi. Masalan, filologik tizimda TTga tizimli yondashuv asosida formal–struktural metod belgilandi, biroq yana ham aniqroq va samarali natijaga erishish uchun semiotik tahlil imkoniyatlaridan foydalanib, muqobil qaror qabul qilishga yordam beruvchi boshqa metod yoki usulni tahlil jarayoniga jalg etish ummkin. Aniqlanmaganlik sharoitida muboqil qaror qabul qilish tizimli tahlilda *aniqlanmagan ob’ektni aniqlash va tahlilga tortish orqali u haqda ilmiy xulosa chiqarishga asos bo‘ladi*.

Tizimli tahlil doim noma'lum, aniqlanmaganlik sharoitida muayyan ilmiy muammoni echim sari yo‘naltiradi, uning xususiyatlarini o‘rganib, ilmiy tahlil

qilishga yordam beradi. Bu jarayonda tizimlilikning muqobil tahlil elementlari belgilanadi, ular asosida noaniqlikdan aniqlik sari qadam tashlanadi.

Aniqlanmaganlik sharoitida muboqil qaror qabul qilish ilm va amaliyotning turli sohalarida sodir qilinishi mumkin:

1. YUrisprudensiyada;
2. Axborotlar tizimida;
3. Pedagogik texnologiyalarda;

hamda barcha aniq fanlarda, muhandislik va iqtisodiyotda qo‘llaniladi. TTdan maqsad aniq echim yoki xulosaning natijaviy ko‘rinishidir. To‘liq va har tomonlama turli variantlarni o‘rganish; birgina echim bilan cheklanmaslik; natijaga olib borishga imkon beruvchi hamma variantlarni erinmay ishlab chiqish orqaligina maksimal aniqlikka erishilish mumkin.

TT mohiyati: ob’ektning hajmi, uning komponentlarining o‘zaro aloqadorligi va boshqa ob’ektga munosabati masalasi. Mohiyat elementlarning xossalari tavsifi va mavjudlik belgilarida aks etadi.

4. Tadqiqot ob’ektini yaxlit tushunish va tizimli tahlilni tashkil etish. TT – bu tizim strukturasiga va muqobil variantlar mavjudligiga asoslangan holda muammoni hal etish metodologiyasi ekan, bunda tizimning umumiy nazariyasi qonuniyatlariga asoslanadi. Masalan, filologik fanlar tizimida, xususan, tilshunoslikda Til – tizim (sistema)dir (F. de Sossyur) degan qarash bor. SHu bilan birga Til – struktura degan qarash ham bor. Ular bir–birini inkor etmaydi, aksincha, birini ikkinchisi to‘ldiradi. Maqsadga erishish uchun tilning tizim ekanini qabul qilishimiz, unga aniq metod orqali yondashganda tilning struktural metod orqali o‘rganish qo‘yilgan vazifani engillatishga xizmat qilishi mumkin. Maqsad samaradorlikka erishishdir. Tizimlilikni obrazli ifodalab, samaradorlik nazariyasi deb ham ataydilar. Samaradorlik hamma

sohada kerak, ayniqsa, miqdor o‘zgarishlarining va sifat o‘zgarishlariga o‘tishida; informatika nazariyasida, struktur tilshunoslikda, struktural poetikada;

modellashtirish metodologiyasida, boringki, har qanday ishning yakuni sifatida muhim.

Tadqiqot ob’ektini yaxlit tushunish deganda *tadqiqot ob’ekti tizimli suratda biri ikkinchisini taqozo qiladigan komponentlardan tuzilishi belgilanadi*. SHundan kelib chiqqan holda *struktura va tizim* munosabatlari aniqlanadi.

Struktura va tizimning munosabatida shuni aniqlab olish zarurki, *struktura – tarkib, u tarkiblanish tamoyillariga amal qilinishda tizimli tahlil natidalariga yaqinlashadi*.

Tahlil jarayonining tizimli xarakteri *tahlilga ob’ektning barcha sifat, xossa va xususiyatlarini jalg qila bilishda ko‘rinadi*.

Topshiriqlar:

1. Mavjud lug‘at, ensiklopediya va vikipedia (internet tizimida)lar asosida matnda tilga olingan istiloh va atamalarni talqini o‘rganing. 2. Tizimli tahlilning tizimli yondashuvdan farqli jihatlarini aniqlang.
3. Aniqlanmaganlik sharoitida muboqil qaror qabul qilishning qo‘sishimcha uslublarini qo‘llashga yordam beradigan usullarini toping va uni tahlil jarayoniga kiriting.
4. Tadqiqot ob’ektini yaxlit tushunishga harakat qiling va tushunganlar asosida o‘z sohangizda tizimli tahlilni tashkil etish mumkinligini ta’minlang.

IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI

1-mavzu. FILOLOGIK TADQIQOTLARDA TIZIMLI TAHLIL METODIKASI

Reja:

1. Filologik tadqiqotlarda tizimlilik.
2. Struktura va tizim. Tahlil jarayonining tizimli xarakteri.
3. Filologiya ilmida tizimli tahlil modeli
4. Ilmiy va nazariy masalalarining tizimli tahlil amaliyotidagi echimi.

Tayanch tushunchalar: filologik tadqiqot, tizimlilik, struktura, tizim, tahlil jarayoni, tahlil modeli.

1. Filologik tadqiqotlarda tizimlilik.

Filologik tadqiqotlar filologik tizimning muayyan qismini tashkil qiladi. Tizimlilik filologiya fanlarining o‘zaro aloqadorligida ko‘zga tashlanadi. Zamonaviy filologiyaning sohalari sifatida tilshunoslik, fadabiyotshunoslik, folklorshunoslik, matnshunoslik, tarjimashunoslik kabi aspektlar belgilanar ekan, ularni alohida mustaqil fan sifatida qabul qilish barobarida o‘zaro aloqadorligiga suyanish va biri ikkinchisini taqozo qilinishi nuqtai nazaridan yondashish zarur. Bundats qarash tarixda ilmi adab va uning tarkibiga kirgan fanlarda aks etgan:

Ilmi adab (G‘arb istilohiga ko‘ra: poetika) zaruriy, eng muhim ilmlar majmuasi hisoblanib, quyidagi filologik sohalarni o‘z ichiga oladi: *lug‘at* (1), *surf*, ya’ni morfologiya (2); *ishtiqaq* – so‘z yasalishi (3); *nahv* – cintaksis (4), *maoniy* (5), *bayon* ilmi (6), *aruz* (7), *qofiya* (8), *insho* (9), she’r farzi – *badoe’* (10), *muhozara* – tarixiy voqea va rivoyatlardan foydalanish (11), *rasmu-l-xat* (12). Mazkur ilmi adabni egallaganlar *adib* (yunoncha: filolog) deb yuritilgan.

Demak, filologiya fanlariga ilmiy tizim sifatida qarash o‘tmish fanshunosligida bo‘lgan, unga *Ibn Mu’tazz* ismli arab olimi X asrda asos solgan. Biroq mana shu

sohalarning biri ikkichisini taqozo etadigan va bir ob'ektga munosabatda ularni birvarakayiga tizimli jihatdan qo'llash XX filologiyasining hosilasidir.

Filologik tadqiqotlardagi tizimlilik matnga bo'lgan munosabatda aniq ko'zga tashlanadi. Chunki bir matnni filologiyaning turli sathlari bo'yicha tahlil qilgandagina uning aniq jihatlariga erishish mumkin. Muammolar tasnifi TT da muhim o'rin tutadi. Umumiyl holda ularni quyilagicha tasniflash mumkin:

1. YAxshi tarkiblangan (strukturirovanniy) – *well-structured*;
2. Bo'sh tarkiblangan (slabo struktirovanniy) – *ill-structured*;

Muammolar echimiga kirishishda shunday etaplardan o'tiladi:

- muammoni belgilash (formulirovka qilish);
 - maqsadni aniqlash;
 - maqsadga erishish kriteriyalari (o'lchovlari)ni belgilash;
 - modellashtirish: echimni asoslash uchun modelni qurish;
 - echimning optimal variantini izlash;
 - echim (qaror berish)ga kirishish;
 - qaror (echim)ni amaliyotga tatbiq etishga tayyorlash;
 - echim (qaror)ni tasdiqlash;
 - echim realizatsiyasi jarayonini boshqarish; – echimning samaradorligini tekshirish.
- 2. Struktura va tizim. Tahlil jarayonining tizimli xarakteri.** Tizimlar turlicha bo'lishi bilan birga u struktural xarakterga ega, ya'ni uning komponentlari o'zaro munosabatga kirishib, struktrani tashkil iladi. Tilshunos olim E.Benvenist uni shunday xususiyatlarini farqlab ko'rsatadi:

- 1) qismlar ustidan hukm yurgizadigan muayyan butunlik (yaxlitlik) birligi;
- 2) birliklar alohida maxsus barqaror tamoyillar asosida shakl jihatdan tartiblanadi;
- 3) butunning barcha qismlari alohida vazifani bajarish barbarida struktural xarakterga ega bo'ladi;

4) bu ma'lum bir sathning birligi (ya'ni element) va o'z navbatida butunning bo'lagi (komponent)dir.

Tizim va struktura munosabatida: *Struktura – tarkib, tarkiblanish tamoyillariga amal qilinishda tizimli tahlil natijalariga yaqinlashadi*. Tahlil jarayonining tizimli xarakteri *tahlilga ob'ektning barcha sifat, xossa va xususiyatlarini jalg qila bilishda ko'rinadi*. Filologik tizimlar formallashtirishga bo'ysunmaydigan jarayonlar bo'lganligi sababli, ularning modellarini yaratib, qandaydir ishonchlilik darajasida o'rganish mumkin, lekin tahlil jarayonining real shart-sharoitlari har qanday optimistik mo'ljallarni inkor etishi mumkin¹². O'z ob'ektiga ko'ra tizimli munosabatdan, ya'ni adabiyot (matn)ga qaysi jihatdan yondashilayotganiga qarab uning ob'ekti va predmeti belgilanadi:

1. **Matnga** asoslangan nazariyalar (formal-struktural yondashuv, *yangi tanqid, narratologiya*) uchun badiiy matn nazariy fanning birlamchi ob'ekti bulgani uchun matn mohiyati (nazariyasi), tarkibi (strukturasi), talqini (germenevtikasi), ifodaviyligi kabi ilmiy muammolar bu yo'nalishdagi tahliliy jarayonning predmetini tashkil qiladi.

2. Adabiy va madaniy-tarixiy **kontekstga** oid nazariyalar

(*reminissensiya, intertekstual*) tadqiqotlar, sotsiologik va tarixiy-materialistik yondashuv, “yangi istorizm” va kulturologik metodologiya kabilar uchun tadqiqot ob'ekti adabiy jarayon masalalari bo'lgani uchun ham bu yo'nalish uchun adabiyot nazariyasi fan predmeti sifatida adabiy jarayon masalalari, an'anaviylik-izdoshlik va vorislik, terminologiya va ularning identifikatsiyasi kabi masalalarni belgilash mumkin.

Matn filologik fanlar tizimida. Filologiyaning yo'nalishlari orasida dastlab tilshunoslikda faol iste'molda bo'lgan “matn tilshunos uchun muayyan xususiyatlar majmuiga ega bo'lgan, tabiiy (milliy) tilni qo'llash aktidir”.¹⁴ Lingvistik ta'limotda matnning mantiqiy aloqadorligi va shakliy tugallanganligi asosiy xususiyat sanaladi. SHuning uchun ham unga “ma'no aloqadorligi asosida birlashgan verbal (so'z) belgi

birliklarining tizimi, uning asosiy xususiyati bog‘liqlik va yaxlitlikdir” deb ta’rif beradilar¹⁵.

Matn tilshunosligi deb nomlanuvchi til ilmi matnni shakllantirilgan nutq sifatida qabul qilib, uning ma’noviy va shakliy qurilishiga ahamiyat qaratadi. S.Valerning yozishicha, matn lingvistik namuna sifatida uch ma’noviy jihatni qamraydi:

- 1) chiziqli (sintaktik ma’no) → nima haqda (xabar);
- 2) referension (semantik ma’no) → nima bilan (aloqa vositasi); 3) utilitar (pragmatik ma’no) → nimani (tavsiya etilayotgan oeallik, mavzu bo‘lishi mumkin) gapiradi.

SHu jihatdan matn vositasida uch savolga javob olinadi: 1) matn nima haqda gapiradi (matn mazmunidagi xabar); 2) matn nima bilan gapiradi – til (aloqa vositasi); 3) nimani gapiradi (tavsiya etayotgan reallik konsepsiysi)¹⁶. Tilshunos matndagi fikrlash tarzi, mantiqdagi «sillologizm»dan ko‘ra unga grammatik ko‘rinishdagi gaplar, konstruksiyalangan leksik va stilistik birliklar jihatidan qaraydi. Sof lisoniy munosabat – bu belgining belgiga va til tizimi doirasidagi belgilarga yoki matnga munosabatidir.

Matnning og‘zaki va yozma turlaridan qat’i nazar adabiyotshunos uchun dastlab badiiy va nobadiiy matn farqlanishi zarur. Badiiy matnda obraz (timsol) asosiy faoliyat vositasi va harakat quroli hisoblanadi, nobadiiy matnda esa konsept – tushuncha, masala, muammo va boshqa jihatlar bu vazifani bajarishi mumkin. Har qanday verbal (so‘z yordamida hosil qilingan) matn o‘zining A) *kommunikativ* – xabar berish,

B) *evristik* – ma’lumot to‘plash,

V) *konseptual* - matn yuboruvchining nuqtai nazari;

G) *emotsional* - his ko‘chirish belgilariga ega.

Badiiy matn esa bulardan tashqari *estetik*, *ijtimoiy*, *axloqiy* vazifalarni ham o‘z zimmasiga oladi. Badiiy matnda nutq birliklari xabar berish, ma’lumot (axborot)

tarqatish, fikr qo‘zg‘otish bilan cheklanmaydi, balki uning zimmasiga badiiy «yuk» ortilishi va estetik vazifani bajarishga safarbar etilishi lozim. So‘zlar asosida shakllantirilgan matnda so‘zning o‘rni qat’iy, ma’noli va ifodaviy bo‘lmog‘i lozim.

Filologiya ilmida tizimli tahlil modeli

Filologiya fanlarida tizimli tahlil modelini aniqlash zarurati *Bor, modelni aniqlash tizimli tahlilning maqsad va vazifalarini belgilashga yordam beradi.*

Strukturalistlar matnga nisbatan yangi nazariya ishlab chiqdilar:

matngacha kechgan va undan keyin bo‘ladigan jarayonlardan matnni qat’iy ajratib, unga mutlaq avtonom qiyofa berdilar. Belgi, struktura (tarkib), funksiya (vazifa) kabi tushunchalar orqali matn tahliliga kirishdilar. 4. ***Ilmiy-nazariy masalalarining tizimli tahlil amaliyotidagi echimi*** konkret metod yoki metodologik yondashuv natijasida erishilgan xulosa va qaror bilan belgilanadi. Masalan, M.Baxtinning uzoq yillar davomida matn tahlili bo‘yicha kuzatishlari olimning «*Tilshunoslik, filologiya va boshqa gumanitar fanlarda matn muammosi*» tadqiqotida o‘z echimini topgan.

Lingvopoetikada *podtekst* inobatga olinadi, lekin struktural tahlilgina kontekstni yuzaga chiqaradi. Semiotik tahlil esa bu ikki tushuncha bilan kifoyalanmay *intertekstuallikni* ham talab qiladi.

Podtekst – (kalkalash orqali rus tiliga olingan – inglizcha: subtext; o‘zbekcha: matnosti) – jiddiy va chuqur adabiy asarlarda ichki «suvosti oqimi» bo‘lib, asarning asosiy konsepsiyasini tashiydi24. E.Xeminguey badiiy asarda “aysberg” g‘oyasini ilgari surgan. Uningcha, asar ma’noning o‘ndan bir qismini olib ko‘rsatadi, o‘ndan to‘qqizi esa matnostida qoladi.

Matnosti nutq birliklarida kuzatgan V.V.Vinogradov bu holatda «so‘zning to‘g‘ri leksik ma’nosi o‘z mohiyatini yo‘qotadi va nutqning ichki mazmunini belgilaydi» deb yozadi25. J.Kuddon pesaning matnosti xususiyati haqida gapirib, ayrim personajlar o‘zlari qatnashayotgan urush mohiyatini anglamasliklari mumkin. Matnosti yashirin

situatsiyalarda, syujet og‘ushida ko‘rinadi. Bu istiloh XX asr so‘ngida “yashirin dastur”ga almashinganini yozadi.

Kontekst (*lotincha: contextus – bog‘lanish, zanjir*) – *matnning ma’no maydoni* bo‘lib, unda badiiy matndagi har bir ichki qurilma ma’no tomonidan boshqariladi, asar talqinida mana shu maydondagi ma’no nazarda tutiladi. H.Benak bu istilohni ma’no birligi sifatida qabul qilgan va ichki aloqadorlik tufayli matnning ayrim qismlarining ajratilib ko‘rsatilishini nazarda tutgan. Bu ma’no maydoni bir jumla tarkibida, bir xatboshi (abzats) yoki she’rdagi bir band (strofa) orasida yoki umuman, butun matnning ichida bo‘lishi mumkin. Matn maydonining buzilishi matnning badiiy butunligiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi va badiiy obraz orqali ifoda etilayotgan muallif fikrini noto‘g‘ri tushunishga olib keladi. Bu go‘yoki mumtoz adabiyotdagi «ihom» san’atini eslatadi, muallif so‘zning yoki jumlaning matndagi zohiriylar ma’nosini emas, aksariyat holda botiniy ma’nosini nazarda tutadi. Bu holat har qanday matnda, xususan, she’riy nutq asosiga qurilgan asarlarda va tasavvufiy talqindagi ramz va ishoralarga boy matnlarda uchraydi.

Lingvistik taxlil o‘rganilayotgan tilning fonetika, leksika va grammatikasini bilishi va ulardan to‘g‘ri va o‘z o‘rnida foydalanishni nazarda tutadi.

Sotsiolingvistik taxlil- bu muloqot jarayonida muayyan vaziyatda til shakllarini to‘g‘ri tanlay olish qobiliyatidir.

Diskurs taxlil – bu nutqiy muloqot qoidalaridan foydalangan xolda nafaqat mantiqiy jumlalar tuzishni , balki boshqa odamlarning fikrlarini izoxlay olishni qobiliyatini xam nazarda tutadi .

Topshiriqlar:

1. Filologik tadqiqotlarda tizimlilikni yuzaga chiqaruvchi omillarni aniqlang va ular bilan ish ko‘rish natijasida filologik tizimlilikni aniqlang.
2. Struktura tizim munosabatini o‘rganing. Tahlil jarayonining tizimli xarakterini anglatuvchi misollar bering.

3. Filologiya ilmida verbal matnga nisbatan tizimli tahlil modeli:

lingvopoetika → *struktural poetika* → *semiotikani belgilang* va ularni tashkil etgan komponentlarni tahlil qiling.

4. Ilmiy va nazariy masalalarning tizimli tahlil amaliyotidagi echimini anglatadigan xulosaviy tushuntirish bering.

2-MAVZU. MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH VA ILMIY-TADQIQ USULLARI

Til – ijtimoiy hodisa. Lingvistik ta'limotda matnning mantiqiy aloqadorigi va shakliy tugallanganligi asosiy xususiyat sanaladi. Shuning uchun ham unga “ma’no aloqadorligi asosida birlashgan verbal (so’z) belgi birliklarining tizimi, uning asosiy xususiyati bog’liqlik va yaxlitlikdir” deb ta’rif beradilar. Matn tilshunosligi deb nomlanuvchi til ilmi matnni shakllantirilgan nutq sifatida qabul qilib, uning ma’noviy va shakliy qurilishiga ahamiyat qaratadi. S.Valerning yozishicha, matn lingvistik namuna sifatida uch ma’noviy jihatni qamraydi:

- 1) chiziqli (sintaktik ma’no) → nima haqda (xabar);
- 2) referentsion (semantik ma’no) → nima bilan (aloqa vositasi);
- 3) utilitar (pragmatik ma’no) → nimani (tavsiya etilayotgan reallik, mavzu bo’lishi mumkin) gapiradi.

Shu jihatdan matn vositasida uch savolga javob olinadi:

- 1) matn nima haqda gapiradi (matn mazmunidagi xabar);
- 2) matn nima bilan gapiradi – til (aloqa vositasi);
- 3) nimani gapiradi (tavsiya etayotgan reallik kontseptsiyasi).

Tilshunos matndagi fikrlash tarzi, mantiqdagi «sillologizm» dan ko’ra unga grammatik ko’rinishdagi gaplar, konstruktsiyalangan leksik va stilistik birliklar jihatidan qaraydi. Sof lisoniy munosabat – bu belgining belgiga va til

tizimi doirasidagi belgilarga yoki matnga munosabatidir. Har qanday verbal (so'z yordamida hosil qilingan) matn o'zining A) kommunikativ – xabar berish, B) evristik – ma'lumot toplash, V) kontseptual - matn yuboruvchining nuqtai nazari; G) emotsiyonal - his ko'chirish belgilariga ega.

Filologiya ilmida tizimli tahlil modeli:

lingvopoetika → struktural poetika → semiotika

Filologiya fanlarida tizimli tahlil modelini aniqlash zarurati bor, modelni aniqlash tizimli tahlilning maqsad va vazifalarini belgilashga yordam beradi. Filologik tadqiqotlarda matnning tizimli modeli Lingvopoetika → struktural tahlil → semiotik tahlil tarzida shakllantirilishi kerak.

Matnni semiotik aspektida o'rghanish nafaqat bu soha mutaxassislari, balki filologlar uchun ham asqotarli usuldir. Bu jihat yordamida mualliflik tabiatiga doir xususiyatlar aniqlanadi. Bu jihatdan 3 asosiy munosabatlar tizimi belgilanadi:

Belgining belgiga munosabati: B → B = Lingvopoetikada.

Belgining matnga munosabati: B → M = struktural yondashuvda.

Belgining adresatga munosabati: B → A = semiotikada.

Nazariy manbalarda matn transformatsiyasi deb nomlanadigan hodisa shakllangunga qadar ham, bugungi jarayonda ham faol kuzatiladi.

Ilmiy-nazariy masalalarning tizimli tahlil amaliyotidagi yechimi konkret metod yoki metodologik yondashuv natijasida erishilgan xulosa va qaror bilan belgilanadi. Masalan, M.Baxtinning uzoq yillar davomida matn tahlili bo'yicha kuzatishlari olimning «Tilshunoslik, filologiya va boshqa gumanitar fanlarda matn muammosi» tadqiqotida o'z yechimini topgan. Garchi bu maqola tugal tadqiqot hisoblansa-da, matn bilan ish ko'radigan gumanitar fanlar uchun asosiy yo'nalish beradi. Muallif yozishicha, matn filologiya fanlarida dastlabki berilganlik (pervyichnaya dannosty) sifatida qabul qilinadi. «Matn shunday borliq (fikr va tuyg'ular borlig'i)dirki, undan barcha gumanitar fanlar oziqlanadilar. Qayerdaki matn bo'lmasa, u yerda tafakkur va tadqiq etiluvchi

ob'ekt ham bo'lmaydi». Avval matnning birlamchi ekaniga ishonch bo'lishi kerak, so'ngra uning talqiniga o'rIN beriladi. SHuning uchun ham tadqiqot maqsadi qanday bo'lishidan qat'i nazar, boshlang'ich manzil (isxodnoy punkt) matndir. Tilshunoslik ham matn bilan ish ko'radi, lekin yaxlit badiiy asar bilan emas. Ya'ni u asar haqida nimani gapis, uning matniga tegishlidir. Sof lisoniy munosabat – bu belgining belgiga va til tizimi doirasidagi belgilarga yoki matnga munosabatidir. Ifodaning real borliqqa va boshqa real ifodalarga munosabati o'sha ifodaning haqiqiy, yolg'on hamda go'zal va boshqalar ekanini bildiradigan munosabat bo'lib, hech qachon tilshunoslik predmeti bo'la olmaydi. Chunki til birliklari orasida til tizimining qaysi darajasini olmaylik dialogik munosabat bo'lishi mumkin emas (fonema, morfema, leksema, gaplar va boshqalar).

Filologik tadqiqotlar filologik tizimning muayyan qismini tashkil qiladi. Tizimlilik filologiya fanlarining o'zaro aloqadorligida ko'zga tashlanadi. Zamonaviy filologianing sohalari sifatida tilshunoslik, matnshunoslik, tarjimashunoslik kabi aspektlar belgilanar ekan, ularni alohida mustaqil fan sifatida qabul qilish barobarida o'zaro aloqadorligiga suyanish va biri ikkinchisini taqozo qilinishi nuqtai nazaridan yondashish zarur. Filologiya fanlariga ilmiy tizim sifatida qarash o'tmishe fanshunoslida bo'lgan, unga Ibn Mu'tazz ismli arab olimi X asrda asos solgan. Biroq mana shu sohalarning biri ikkinchisini taqozo etadigan va bir ob'ektga munosabatda ularni birvarakayiga tizimli jihatdan qo'llash XX filologiyasining hosilasidir. Filologik tadqiqotlardagi tizimlilik matnga bo'lgan munosabatda aniq ko'zga tashlanadi. CHunki bir matnni filologianing turli sathlari bo'yicha tahlil qilgandagina uning aniq jihatlariga erishish mumkin. Muammolar tasnifi TT da muhim o'rIN tutadi. Umumiy holda ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Yaxshi tarkiblangan – well-structured;
2. Bo'sh tarkiblangan – ill-structured;
3. Tarkiblanmagan yoki o'zaro miqdoriy aloqada bo'lgan – unstructured;

Muammolar yechimiga kirishishda shunday etaplardan o'tiladi:

- muammoni belgilash (formulirovka qilish);
- maqsadni aniqlash;
- maqsadga erishish kriteriylari (o'lchovlari)ni belgilash;
- modellashtirish: yechimni asoslash uchun modelni qurish;
- yechimning optimal variantini izlash;
- yechim (qaror berish)ga kirishish;
- qaror (echim)ni amaliyotga tatbiq etishga tayyorlash;
- yechim (qaror)ni tasdiqlash;
- yechim realizatsiyasi jarayonini boshqarish;
- yechimning samaradorligini tekshirish.

Ko'ptarmoqli va ko'pomilli muammolarda algoritmni aniqroq qo'yish:

- muammoning mavjudligi shartini tasliqlash: VA (ha), YoKI (aniq emas), YO'Q.
- Maqsadni biror yechim sari yo'naltirish: VA (ha)lar YoKI ga aylanadi va aksincha: YoKI VAgA aylanadi, lekin YO'Qqa aylanmaydi.
- Bir muammo tahlili va yechimidan ikkinchisini chiqarish;
- Har bir topilgan yechim yo'llarini baholab borish;

Tadqiqot ob'ektini yaxlit tushunish deganda tadqiqot ob'ekti tizimli suratda biri ikkinchisini taqozo qiladigan komponentlardan tuzilishi belgilanadi.

Topshiriqlar:

1. Filologik tadqiqotlarda tizimlilikni yuzaga chiqaruvchi omillarni aniqlang va ular bilan ish ko'rish natijasida filologik tizimlilikni aniqlang.
2. Struktural tizim munosabatini o'rganing. Tahlil jarayonining tizimli xarakterini anglatuvchi misollar bering.

3. Filologiya ilmida verbal matnga nisbatan tizimli tahlil modeli: lingvopoetika → struktural poetika → semiotikani belgilang va ularni tashkil etgan komponentlarni tahlil qiling.
4. Ilmiy va nazariy masalalarining tizimli tahlil amaliyotidagi yechimini anglatadigan xulosaviy tushuntirish bering.
5. Filologik tizimlilik haqida ma'lumot bering.
6. Ilmiy tadqiq usullari haqida ma'lumot bering.
7. Tilshunoslik, matnshunoslik va tarjimashunoslik aspektlari haqida ma'lumot bering.
8. Tadqiqot ob'ekti yaxlitligi haqida tushuncha bering.

Nazorat savollari

1. Til qanday hodisa?
2. Matn nima bilan gapiradi?
3. Filologiya ilmida tizimli tahlil modeli qanday?
4. Til birliklari nimalardan iborat?
5. Filologiya fanlariga ilmiy tizim sifatida kim asos solgan?
6. Filologiya fanlariga ilmiy tizim sifatida qachon asos solingan?
7. TT da nima muhim o'rinn tutadi?
8. Muammolar yechimiga kirishishda qanday etaplardan o'tiladi?

4-mavzu: Ma'lumotlar taxlil qilish usullari: lingivistik taxlil, diskurs taxlil, sotsiolingvistik taxlil, kontenti va kontekstni taxlil etish mexanizmlari.

5-mavzu: Taxlil etish natijasida ma'lumot tayyorlash: maqola, kitob va dissertatsiya shaklidagi taxliliy materiallar yozish.

6-mavzu: Ilmiy tadqiq usullari: sinxron aspekt, diaxron aspektdagi tilshunoslik taxlil usullari.

Ishdan maqsad: Tizimli tahlilning terminologik asoslarini topish. Tahlil jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan faol terminlar jalvalini tuzish va ularni

izohlash. Tizimli tahlilning rivojlnish bosqichlarini mavjud nazariy adabiyotlar bo‘yicha aniqlash. Analitik tadqiqotlar tizimida TT ni tahlil etish imkoniyatlarini belgilash va yo‘nalishlarini aniqlash. Badiiy matnga tizimga yondashuvda matn turlari, xossalari va transformatsiyasini tahlilga tortish.

Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchi tavsiya etilgan reja asosida ilmiy adabiyotlar bilan tanishadi, termin va istilohlar mohiyatini lug‘at va ensiklopediyalardan konsekt oladi va tizimli tahlilga badiiy matnning struktural tahlili yordamida kirishadi. **Ishni bajarish uchun namuna.** Mazkur mavzuning namunasi majmuuning “Glossariy” qismi berilgan. Uni o‘rganing va shu tartib asosida unda aks etmagan terminlar jadvalini tuzing.

V. KEYSLAR BANKI

1-Keys

Keys vaziyati: Siz èsh pedagogsiz va pedagogik tajribangiz katta emas.

O‘qituvchilik faoliyatningizni boshlaganingizga 6 oy bo‘ldi. Sizga ma’muriyat èsh mutaxassis sifatida ta’lim burish ya’ni dars jaraèniga uzgarishlar,yangilikla kiritishingizni kutmoqda. Siz —**Modulli èndashuvning mazmuni, maqsadi va vazifalari** mavzusi yuzasidan ma’ruza darsini tashkil etishingiz kerak. Ma’ruza darsi ochiq dars sifatida rejalashtirilganligi sababli bir qancha o‘qituvchilar darsingizni kuzatish uchun kirishlarini bildirdilar. Dars uchunchi bosqich talabalari uchun tashkil etiladi.

Keys topshirig‘i:

— **Modulli èndashuvning mazmuni, maqsadi va vazifalari** mavzusi yuzasidan ma’ruza darsida samarali natijaga erishish uchun darsni qanday toshkil etishi lozim?

2-Keys

Keys vaziyati: Kaferda yuqori malakali kadrlarni tayèrlash, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta o‘zlashtirgan kadrlarni tayèrlashga katta ahamiyat berilmoqda. Buning uchun nafaqat nazariy èki amaliy bilimlar, shu bilan bir qatorda mustaqil ta’limni to‘g‘ri tashkil etish ham o‘z ahamiyatiga ega. Mazkur muammoni echish maqsadida o‘qtuvchi Pirnazarova Gulnoza Xasanovnaga —**Ta’lim oluvchilarining mustaqil faolyaitni tashkil etish bo‘yicha xorij tajribasi** mavzusida mustaqil ta’limni tashkil etishda xorij tajribasini o‘zlashtirish muammosini hal qilish topshirildi.

O‘qituvchi Pirnazarova Gulnoza Xasanovna: —Endi yuq, mavzuga oid tushunchalariga izoh berishni hohlamadinglarmi, eslatma èzamiz!-dedi **Keys topshirig‘i:**

1. Xorij tajribasining bizning o‘qitish texnologiyamizga mosligi.
2. Mustaqil ta’lim uchun ajratilgan vaqt soatlarining farqlari.

3. Mustaqil ta’limni tashkil etish shakllari va sharoiti.

3-Keys

Keys vaziyati: Mutaxassislik kafedralalarida mutaxassislik fanlarini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalaridan keng foydalanish zamon talabi hisoblanmoqda. Hozirgi kunda texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi mutaxassislik fanlarini o‘qitishda ham bir qator muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda. SHu maqsadda kafedraning èsh, chet lada tajribalar orttirib qaytga O‘qtuvchi Abdullaev Sarvar Abullaevich —**Mutaxassislik fanlarini o‘qitish texnologiyasi** fanidan tinglovchilarning nazariy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha muammoni hal qilish vazifasi topshirildi.

O‘qtuvchi Abdullaev Sarvar Abullaevich: —Mutaxassislik fanlarini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini tahlil qilamiz!-dedi

Keys topshirig‘i:

1. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi.
2. Boshqa fanlarni o‘qitish texnologiyasidan mutaxassislik fanlarini o‘qitish texnologiyasidagi o‘zaro bog‘liqlik.

VI. GLOSSARY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Tizim	Tizim (sistema – yunoncha: butunlik, qismlarning ulanib, bir butun holida bo‘lishi) biror butunlik (yaxlitlik)ni hosil qiluvchi a’zo (komponent)larning o‘zaro aloqadorlikdagi yig‘indisi	System (Greek - system: integrity, interconnectedness and interconnection) is the interconnected sum of the components that make up a whole.
Tizimli tahlil	<i>Tizimli tahlil</i> (TT) ikki ma’noda qo‘llaniladi: tor va keng ma’nolarda: 1) tor ma’noda – murakkab siyosiy, harbiy, sotsial, iqtisodiy, ilmiy va texnik xarakterdagi muammolarni echish va asoslashda qo‘llaniladigan metodologik vositalar yig‘indisi; 2) keng ma’noda “TT”, ko‘pincha, “tizimli yondashuv”ning sinonimi sifatida qo‘llaniladi (tizimli yondashuv jarayoniga kirishil-ganda bu munosabatga yana qaytiladi).	Systematic analysis (SR) is used in two ways: in narrow and broad terms: 1) in narrow terms - a set of methodological tools used to solve and justify complex political, military, social, economic, scientific and technical problems; 2) In the broadest sense, “TT” is often used as a synonym for a “system approach” (when the system approach approaches the process, it returns to this relationship).
Emerjentlik	YAxlitlik elementlarning komponentlashuvi, ya’ni unsurlarning o‘zaro aloqadorlikka kirishuvi natijasida butunlik (yoki jonlilik) hosil qilinishidir	Integrity is the componentization of elements, that is, the formation of integrity (or vibrancy) as a result of the interconnection of elements.
Tizimli tahlil mohiyati:	Ob’ektning hajmi, uning komponentlarining o‘zaro aloqadorligi va boshqa ob’ektga munosabati masalasi. Mohiyat bu komponentlar xossalalarining tavsifi va mavjudlik belgilariada aks etadi	The question of the size of an object, the interrelation of its components, and its relation to another object. The essence is reflected in the characteristics and availability characteristics of these components

Ilmi adab	G‘arb istilohiga ko‘ra: poetika; zaruriy, eng muhim ilmlar majmuasi hisoblanib, quyidagi filologik sohalarni o‘z ichiga oladi: <i>lug ‘at</i> (1), <i>sarf</i> , <i>ya’ni</i> morfologiya (2); <i>ishtiqoq</i> – so‘z yasalishi (3); <i>nahv</i> – cintaksis (4), <i>maoniy</i> (5), <i>bayon ilmi</i> (6), <i>aruz</i> (7), <i>qofiya</i> (8), <i>insho</i> (9), <i>badoe’</i> – she’r farzi (10), <i>muhozara</i> – tarixiy voqeа va rivoyatlardan foydalanish (11), <i>rasmu-l-xat</i> (12)	According to the Western term: poetics; is a necessary and most important set of sciences and includes the following philological fields: dictionary (1), expenditure, ie morphology (2); enthusiasm - word formation (3); nahv - syntax (4), maoni (5), narrative science (6), aruz (7), rhyme (8), essay (9), badoe'-fard (10), discussion - use of historical events and narratives (11), photo-letter (12)
Muammolar tasnifi	TT da muhim o‘rin tutadi. Umumiy holda ularni quyidagicha tasniflash mumkin: 1.YAxshi tarkiblangan (struktirovanniy) – <i>well-structured</i> . 2.Bo‘sh tarkiblangan (slabo struktirovanniy) – <i>ill-structured</i> . 3.Tarkiblanmagan yoki o‘zaro miqdoriy aloqada bo‘lgan (nestruk-tirovanniy) – <i>unstructured</i> ;	It plays an important role in TT. In general, they can be classified as follows: 1. Well-structured (well structured) - well-structured. 2. Empty Composition (slabo struktirovanniy) - ill-structured. 3. Unstructured or interconnected quantities (nestruk-tyranny) - unstructured;
Tadqiqot ob’ektini yaxlit tushunish	Tadqiqot ob’ekti tizimli suratda biri ikkinchisini taqozo qiladigan komponentlardan tuzilishi belgilanadi.	The object of the research is systematically determined from the components that make up the other.
Struktura	Tarkib, tarkiblanish tamoyillariga amal qilinishda tizimli tahlil natijalariga yaqinlashadi.	The content approaches the results of systematic analysis when complying with the principles of composition.
Matnga asoslangan nazariyalar	Formal-struktural yondashuv, <i>yangi tanqid</i> , <i>narratologiya</i>) uchun badiiy matn nazariy fanning birlamchi ob’ekti bulgani uchun matn mohiyati (nazariyasi), tarkibi (strukturasi), talqini (germenevtikasi), ifodaviyligi	As the literary text is the primary object of theoretical science for formal-structural approach, new criticism, narratology, scientific problems such as the essence (theory), structure (structure), interpretation (hermeneutics),

	kabi ilmiy muammolar bu yo‘nalishdagi tahliliy jarayon	expressiveness in this area are analyzed.
Muallifni o‘rganishga qaratilgan nazariyalar	Biografik va psixoanalitik yondashuv, shu bilan birga feministik adabiyot-shunoslik, fenomenologik tadqiqotlar uchun ob‘ekt badiiy ijod yoki muayyan ijodkorning asarlari bo‘lgani uchun ham uning predmetini muallif uslubi, uslubni ro‘yobga chiqaruvchi tashqi (metod, janr va boshqalar) va ichki xususiy hollar (dunyoqarash, yozish qoidalari, mahorat) kabilar ushbu yo‘nalishdagi nazariy qarashlarning predmetini tashkil qiladi.	Biographical and psychoanalytic approaches, including feminist literary criticism, phenomenological studies, whether the subject is a work of art or a work of a particular artist, its subject matter, method, genre, etc. rules, skills, etc.) are the subject of theoretical theories in this area.
Lingvopoetika	Badiiy matnni til sathlari va badiiy jihatlari bo‘yicha tahlil etishni zimmasiga olib, tizimli tahlilning keyingi bosqichlariga asos yaratadi.	It undertakes the analysis of the literary text on the levels and artistic aspects of the language and provides the basis for further stages of systematic analysis.
Struktural poetika	Matn madaniyat fenomeni sifatida mas’ul nutqiy harakat bo‘lib, u vujudga kelgan makon va zamondan tashqarida «ishlashga» moslashtirilgan holda qayta ishlanadi va ohor beriladi.	The text is a speech movement responsible for the phenomenon of culture that is processed and interpreted in a way that is adapted to “work” beyond space and time.
Matn transformatsiyasi	Bir mavzu doirasidagi matnlarni janr va syujetiga ko‘ra o‘zgarishidir. A.N. Veselovskiy syujet poetikasi nuqtai nazaridan, V.B.SHklovskiy yangi janrlar vujudga kelish omili deb qarashgan.	Change text within a theme by genre and plot. A.N. Veselovsky from the point of view of subjective poetics, VBShklovsky considered the emergence of new genres.
Podtekst	Kalkalash orqali rus tiliga olingan – inglizcha: subtext; o‘zbekcha: matnosti; jiddiy va chuqur adabiy asarlarda ichki «suvosti oqimi» bo‘lib, asarning asosiy konsepsiyasini tashiydi.	Taken to Russian by Shading - English: subtext; Uzbek: texts; in serious and profound literary works the inner "subterranean" carries the basic concept of the work.

	E.Xeminguey badiiy asarda “aysberg” g‘oyasini ilgari surgan.	In the work of art, Hemingway put forward the idea of "iceberg".
Kontekst	Lotincha: contextus – bog‘lanish, zanjir – matnning ma’no maydoni bo‘lib, unda badiiy matndagi har bir ichki qurilma ma’no tomonidan boshqariladi, asar talqinida mana shu maydondagi ma’no nazarda tutiladi.	Latin: contextus is the link, the chain is the meaning space of the text, where each internal device in the artistic text is controlled by the meaning, meaning the meaning of the space in the interpretation of the work.
Intertekstual lik	Fransuzcha: intertextuality; so‘zma-so‘z ma’nosı: matnlarorasi; badiiy matnning ichki aloqadorligi bo‘lib, u tashqi hayot voqealariga emas, balki matnning o‘ziga va boshqa matnlarga munosabatidir.	French: intertextuality; literal meaning: texts; fiction is the internal link between the text itself and other texts, not external events.
Reminisensi ya	Lotinchadan olingan bo‘lib esga olish ma’nosini anglatadi.	Reminiscent – tending to remind one of something
Intertekstual	Matnning boshqa matn ma’nosı orqali shakllanishi. Bu adabiy vosita bo‘lib matnlar o‘rtasida bog‘liqlikni amalga oshiradi.	Is the shaping of a text’s meaning by another text. It’s a literary device that creates an interrelationship between texts’ and generates related understanding in separate works.
Referension	Lotinchadan olingan bo‘lib biror so‘zning yoki frazaning aynan biror kishiga, joyga, yoki narsaga nisbatan taa’luqliligini bildiradi	Of a word or phrase applied to a particular person, place, or thing and not to any other
Utilitar	Inglizchdan olingan bo‘lib biror narsaning qanchalik foydaliliginibildiradi	Doctrine that the useful is the good and that the determining consideration of right conduct should be the usefulness of its consequences

Stilizatsiya	Biror janr, avtorga xos badiiy uslubni o‘zlashtirish	To design in or cause to conform to a particular style, as of representation or treatment in art
Induksiya	Xususiylikdan umumiylilikka o‘tish jarayonidir	Process of turnig into general understanding from individual
Deduksiya	Umumiylilikdan xususiylikka o‘tish jarayonidir	Process of turning into individual understanding from general

VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so'zi. 2017. 16 yanvar, №11.

2. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. T., 2016. 56 b.

3. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilganmajlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. T.: O'zbekiston, 2017. 104 b.

4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagini ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. T.: O'zbekiston, 2017. 48 b.

5. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. T.: O'zbekiston, 2017. 488 b.

II. Me'yoriy- huquqiy hujjatlar

3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrdagi, 2003 yil 24 apreldagi, 2007 yil 11 apreldagi, 2008 yil 25 dekabrdagi, 2011 yil 18 apreldagi, 2011 yildagi 12 dekabrdagi, 2014 yil 16 aprelda qabul qilingan qonunlariga muvofiq kiritilgan o‘zgartish va qo‘srimchalar bilan). T., 2014.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni / O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborot-nomasi. 1997. 9-son, 225-modda.

5. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi / O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997. 11-12-son, 295-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyuldagagi “Ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbir-korlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 2 noyabrdagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1426-sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil may-dagi “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1533- sonli Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 iyuldagagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomil-lashtirish to‘g‘risida”gi PF-4456-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 dekabrdagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risi-da”gi 365-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797 sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tiziminiya yanada yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-2909 sonli Qarori.

I. Maxsus adabiyotlar

1. Lotin tili va meditsina terminologiyasi M.N. BOLIYEV.

2.. Medical Terminology Simplified Fourth Edition. Barbara A. Gyls, CMA. A; Regina M. Masters, BSN, Med, RN, CMA.

3. Xodjayeva L.U., Zohidova X.A., Rahmatullayva Z.Z. “Lotin tili”. –Andijon, 2005.

5. Kondratyev D., Vylegzhannina O., Knyazeva J. “Latin and Fundamentals of Medical Terminology” –Grodno, 2005.

6. Bondarenko M. A. “Latinskiy yazik i osnovi meditsinskoy terminologii”. –Kiev, 2007.

7. Israilova M.N. Slovar latino-greko-russko-anglo-uzbekskix meditsinskix terminov. –Tashkent, 2017. Agentstvo po intellektualnoy sobstvennosti Respublikи Uzbekistan DGU 04860.

8. Israilova M.N. “Lotin tili va tibbiy farmatsevtik terminologiya” Toshkent 2016

Интернет манбалари:

<https://moluch.ru/>

<http://uz.infocom.uz/>

<http://site.ziyonet.uz/ru/>

<https://aim.uz/>

<https://samgasi.uz/>

<https://scarpis.ru/uz/>

<http://oqituvchi.uz/>

<http://oqituvchi.uz/>

<https://kitobxon.com/>

<https://moluch.ru/>